

KIMYO O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYALARNING RIVOJLANGANLIGINI ANIQLASH MEZONLARI

Odilxo'jazoda Nigoraxon Baxtiyorxo'ja qizi

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7248644>

Bugungi kunda butun dunyoda ta'lim muassasalari kimyo o'qituvchilarining kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, ta'limni tashkil etish va boshqarish sohasidagi malakalarini oshirish, kasbiy kompetensiyalarini aniqlash kabi yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda asosiy e'tibor ta'lim muassasalari o'qituvchilarining aqliy salohiyatini oshirishga qaratilgan bo'lib, ularda kimyo o'qituvchisining kasbiy kompetentligini aniqlashning nazariyasi va amaliyoti bilan bog'liq muammolar yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Ayni vaqtda zamonaviy ta'lim tendensiyalariga muvofiq kompetensiyaviy yondashuv asosida kimyo o'qituvchilarining jahon standartlari darajasida o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlashga qodir, ijtimoiy va kasbiy mobil, mehnat bozorida raqobatbardosh, kompetentli kadr sifatida kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi [1].

Biz o'z tadqiqotlarimizda oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan kimyo o'qituvchilarining kasbiy kompetentliklarini aniqlash metodikasini takomillashtirish masalalarini o'rgandik.

Kimyo o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini aniqlashda sohaga oid eng murakkab tushunchalarning mazmunini tushuntirish, muammoli vaziyatlarni tizimli ravishda yaratish, talabalarga dalillarni etkazish va ularning o'quv-biluv faoliyatini shu tarzda tashkil etishdan iborat bo'ldiki, ular taqdim qilingan kimyoga oid dalillarni tahlil qilish asosida mustaqil ravishda xulosalar va umumlashmalarga ega bo'ldilar.

Kimyo o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini aniqlashning bosqichlari ma'lum ketma-ketlikda amalga oshirildi:

1. Tashkil etilgan vaziyatni baholash, uni kvalimetrik tahlil etish;
2. Kasbiga oid malakalarning shakllanganligini, egallangan bilimlarni amaliyotda qullay olishini diagnostika qilish
3. Texnologiyalar asosida taxmin qilish, faraz qilish va asoslash;
4. Farazni tasdiqlash, muammoni hal qilishning to'g'riligini tekshirish.

Kimyo o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini aniqlash uchun quyidagi jarayon bosqichlari belgilandi (1-jadval):

Jarayon bosqichlari	Ularni izoxi
<i>ko'nikma</i>	sohaga oid egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash
<i>malaka</i>	avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi
<i>kompetensiya</i>	egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish layoqati
<i>tashkil etish</i>	qo'yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon
<i>shakl</i>	o'quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq
<i>natija</i>	o'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi

Kimyo o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarning rivojlanganligini aniqlash uchun ulardagi bilim, ko'nikma va malakalarini doimiy yangilab borish, ta'lim berishda motivatsiya, realizatsiya va refleksiya malakalarini tadqiq etish muhim bo'lib hisoblanadi [2].

Tadqiqotlarimiz mobaynida kimyo o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarning rivojlanganligini aniqlash texnologiyasini takomillashtirish zarurati mavjudligi ayon bo'ldi. Shu jihatdan olganda, biz o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish paradigmasidagi ta'limning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini egallash jarayonlarini tahlil qildik va uning funksional bosqichlarini tahsil oluvchilarda maqbul kompetensiyalarni rivojlantirish nuqtai nazaridan baholadik. Muammoli o'qitish paradigmasi quyidagi mezonlarga tayanadi:

-ta'limning ijtimoiylashuvi-mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga nisbatan texnokratik yondashuvdan voz kechish, o'zlashtiriladigan bilimlar majmuasining pedagogik hamda psixologik xususiyat kasb etishini ta'minlash, tahsil oluvchilarda umuminsoniy, umummadaniy qadriyatlar mazmunida ilgari surilgan g'oyalarga asoslangan ijtimoiy tafakkurni shakllantirish;

-ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy istiqloq g'oyalariga asoslanish;

-shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish hamda kimyo fanidan mustaqil ta'lim olishga bo'lgan layoqatiga tayanish va uni takomillashtirish;

- shaxsning kasbiy jihatdan shakllanishida o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga erishish;
 - ta'lim jarayonida o'quv dasturlarining tahsil oluvchilar qobiliyati hamda qiziqishlariga ko'ra tanlab olinishi borasidagi imkoniyatning mavjudligi;
 - pedagogik ta'limning fundamental xususiyat kasb etishi, ya'ni, tahsil oluvchilar tomonidan o'zgaruvchan sharoitlarda shaxs ijodiy rivoji asosini ta'minlovchi invariant bilimlarning o'zlashtirilishiga erishish;
 - mehnat bozori hamda ijtimoiy jarayonlarda yuzaga keluvchi hamda doimiy ravishda o'zgarib turuvchi ehtiyojlarga to'laqonli javob bera oladigan ta'limni shakllantirish, shu asosda kasbiy moslashuvchan mutaxassislarni tarbiyalash;
 - ta'limning uzluksizligi, ta'limning har bir jarayon bosqichining natijalanishini ta'minlovchi kasbiy ta'lim (kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash) dasturlarining tizimining yaratish va rivojlantirish, muayyan dasturni ta'limning u yoki bu bosqichida o'qitilishi yoki o'qishni boshqa tipdagi o'quv muassasida davom ettira olish imkoniyatini bera olishi;
 - ta'limning ekvivalentligi, ya'ni uning davlat ta'lim standarti, milliy madaniyati va mentalitet, shuningdek, xalqaro me'yorlarga muvofiq darajasi.
- Tadqiqot doirasida kimyo o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarning rivojlanganligini aniqlashga mo'ljallangan mezonlar ishlab chiqildi (2-jadval).

2-jadval.

Kimyo o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarning rivojlanganligini aniqlashga mo'ljallangan mezonlar

№	mezonlar	natijaviyligi
1	Loyihalangan o'quv materialini idrok etishga motivatsiya hosil qila olish; asosiy va mohiyatan birlamchi fikrlarni aniqlay olish; akt asosida internetdan uzatilayotgan ma'lumotlarni yozib olish, saralash, tahlil qilish, interpretatsiyalash, modellashtirish.	Istiqbol rejasining bajarilishi kafolatlanadi, ta'lim sifati oshadi
2	Kimyo sohasiga oid taqdim etilgan matnni analiz, sintez, analogiya, bashorat qilish ko'nikmalarining rivojlanganligi	Malaka toifasining o'sishi
3	Kasbiy kompetensiyalarning rivojlanganligi	Kasbiy malakalarning rivojlanishi
4	O'quv faniga oid motivatsiyaning rivojlanganligi	O'quv kursini o'zlashtirish

		samaradorligi
5	Didaktik kompetensiyalarning rivojlanganligi	Kasbiy faoliyatini tashkil qila olishi
6	Kimyoviy reagentlar bilan ishlash qobiliyatlarining rivojlanganligi	Ular bilan erkin ishlay olishi
7	Egallangan bilimlardan faoliyatida foydalanish malakalari	Malaka toifasining o'sishi
8	Kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lish uchun laboratoriya uskunalari bilan ishlay olishi	Malaka toifasining o'sishi

Jadvalda ifodalanganidek, kimyo o'qituvchilarida kasbiy faoliyat mezonlari ularda malaka talablarining o'sishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. N.B.Odilxo'jazoda, Sh.A.Mamajonov. "Oliy ta'lim muassasalari kimyo o'qituvchilari kasbiy kompetentligini aniqlash metodikasi". Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. jurnali. № 9, 2022 sentyabr. 115-121 betlar.
2. N.B.Odilxo'jazoda. «Основные профессиональные компетенции преподавателей химии высших учебных заведений». International scientific and practical conference "Innovative development in the global science" Abstracts of VIII International Scientific and Practical Conference 5-part, 5-204 pages. <https://academicsresearch.com/index.php/iditys> 28.09.2022. 205-210 5-part, 5-204 pages. <https://academicsresearch.com/index.php/iditys> 28.09.2022. 205-210 bet.
3. Askarovich, M. S., Qizi, O. N. B., & Kizi, M. I. B. (2021). FORMATION OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS OF CHEMISTRY. Вестник науки и образования, (6-3 (109)), 28-31.
4. Askarovich, M. S., Uljaevna, U. O., & Inomjohnovna, O. N. (2020). Applying case study-method in teaching chemistry. Проблемы современной науки и образования, (3 (148)), 62-64.
5. B. S. Siddiqov, & Sh. N. Mexmonaliyev (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI. Academic research in educational sciences, 3 (1), 10-16. doi: 10.24412/2181-1385-2022-1-10-16
6. Begmurzayevich, D. B. (2022). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINIF O 'QITUVCHILARIDA REFLEKSIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING

METODOLOGIK ASOSLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 154-160.

7. Begmurzayevich, D. B. (2022). O 'QUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. Ijodkor o 'qituvchi, 2(20), 52-59.

8. Shuxratjon, M. S. A. S. M. (2022). BO 'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 1(5), 177-180.

9. Siddikov, B., & Djalalov, B. (2020, December). MODERNIZATION OF EDUCATION-THE FUTURE INNOVATIVE COMPETENCE OF TEACHERS AS A MAIN FACTOR OF FORMATION. In Конференции.

10. Siddiqov, B. S., & G'aniyevich, Q. M. (2022). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 173-180.

11. Ахмедов, Б. А. (2020). Сиддиков Бахтиёр Саидкулович, Джалалов Бахромжон Бегмурзаевич МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. Academy, 9, 60.

12. Ахмедов, Б. А., Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2020). МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. Academy, (9 (60)), 20-22.

13. Джалалов, Б. Б. (2018). РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION (pp. 53-55).

14. Джалалов, Б. Б. (2019). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. In EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY (pp. 43-44).

15. Джалалов, Б. Б. (2022). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA SMART-TA'LIMNING IMKONIYATLARI. УЧИТЕЛЬ, 3(4).

Мамажонов, Ш. А., & Кизи, О. Н. Б. (2019). Формирование профессиональной компетенции преподавателя химии. Вестник науки и образования, (19-2 (73)), 31-33.